

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA MULOQOT MADANIYATINING TUTGAN O'RNI

Turayeva Dildora Shuhratovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi

E-mail : dildoraturayeva865@ mail.com Tel : +998915426808

Annotatsiya: Ushbu maqolada, yosh avlodni tarbiyalashda muloqot madaniyatining tutgan o'rni, uning bugungi kunda inson hayotidagi ahamiyati yoritib berilgan. Inson bioijtimoiy, ruhiy-ma'naviy mavjudot sifatida xilma-xil ehtiyojlarga egadir. Ana shu ehtiyojlarning qondirib borilishi jarayonida inson shakllanadi, rivojlanadi, o'z ruhiy ma'naviy qiyofasini shakllantirib boradi. Zero, insonning boshqa turdagi deyarli barcha ehtiyojlarining qondirilishi aynan muloqotga bo'lgan ehtiyojining nechog'li qondirilishi bilan bog'liqdir.

Kalit so'zlar: muloqot, yoshlar, san'at, kommunikatsiya, axborot, til, ehtiyoj, ong, nutq, idrok, ehtiyoj, muomala, shaxs, kommunikatsiya, aloqa.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning rivojlanishi yoshlarning ma'naviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Bu vazifalarni amalga oshirish insoniy o'zaro munosabatlarda demokratik tamoyillarning teran tafakkur etishni taqozo etadi.

Rivojlanib borayotgan mamlakatimizda sog'lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazishga katta e'tibor berilmoqda. Yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biridir. Bundan tashqari, "huquqiy madaniyat" tushunchasidan kelib chiqib, siyosiy faollikka yoshlarga nisbatan xos bo'lgan siyosiy-huquqiy xususiyat sifatida yondashish mumkin.

Shuningdek, yoshlar siyosiy-huquqiy huquqiy faolligi shakllanish jarayonining mazmuni o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- 1) huquqni bilish;
- 2) huquqqa bo'lgan munosabat;
- 3) qonuniy xulq-atvorga qarab mo'ljal olish;
- 4) o'z qonuniy xulq-atvorini zarurligini anglab yetish;+

Yoshlar ijtimoiy hayotda mamlakat aholisining eng yosh va tez o'zgaruvchan salohiyatini tashkil etuvchi o'zining tarkibiy jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan qatlamidir. Bu qatlamning har sohada faolligini oshirishda muloqotning o'rni beqiyosdir.

Muloqot bu insonning o'ziga xos ehtiyojlaridan biridir. Muloqot - bu odam

lar o'rtasida aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab ko'p qirrali jarayoni hisoblanib, u qo'shma faoliyat ehtiyojlari va ma'lumot almashish, o'zaro

ta'sirning yagona strategiyasini ishlab chiqish, boshqa shaxsni idrok etish va tushunishni o'z ichiga oladi.

Muloqot madaniyatini komil insonning muhim sifatlaridan biri deyish mumkin. Muloqot madaniyati yetarlicha bo'lmagan insonlar sog'lom ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishlari mushkul.

Insonning tabiati shundayki, u atrofadagilar bilan muloqotda bo'lmasdan yashay olmaydi. Bola tug'ilganda uning onasi mehrini muloqot orqali beradi. Bolalar yoshlikdan avvalo oilada, so'ngra ta'lim maskanlarida muloqotga o'rgatib boriladi. Muloqotning tarbiyaviy jihati shundaki, u insonning dunyoqarashini kengaytiradi.

Har tomonlama rivojlangan, yetuk, komil inson (shaxs)ni tarbiyalash uchun yoshlarni erkin fikrlaydigan qilib voyaga yetkazish zarur. Demak, muloqot fikrlash bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi.

Mamlakatimizda istiqbolda amalga oshirishga mo'ljallangan g'oyalar mavjud bo'lib, ular vatanimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi istiqbol dasturi vazifasini bajarib kelmoqda. Bu g'oyalar:

- 1) O'zbekiston kelajagi buyuk davlat
- 2) fuqorolar ongini ma'naviyat ma'navoiyat mash'ali bilan yoritish
- 3) O'zbekistonda demokratik, huquqiy, fuqorolik jamiyatini qurish
- 4) mustaqil fikrlovchi, faol, fidoiy kishilarni tarbiyalash
- 5) komil insonni kamol topdirish kabilardir.

Vatanimizning milliy g'oyasi barcha millatlar uchun umumiydir. Milliy g'oya yoshlarning diniy e'tiqodi, forovon hayot, o'zaro totuvlik, mustaqillik tuyg'usiga sadoqat, orzu-umidlari ro'yobga chiqishini ta'minlaydi.

Milliy g'oyani bolalar ongiga yoshlikdan singdirish kerak. Avvalambor, oila, maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashning o'chog'i hisoblanadi. Bog'cha yoshidagi bolalarga faqat yodlatish orqali mashg'ulotlarni o'tkazmasdan, muloqot treningidan ko'proq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Muloqot treningida "Vatan nima?", "Ona zamin degani njima?", "Biz nima uchun yashaymiz?", "Buyuk ajdodlarimiz kimlar?" kabi muammoli savollarni o'rta tashlab, bolalar ongiga milliy g'oyani singdirish mumkin.

Bugungi kunda yoshlarni muloqotga o'rgatish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, gaplashayotgan kishilar biri gapiradi, biri tinglaydi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishiga bog'liq. Mashhur amerikalik notiq Deyl Kornegi "Yaxshi suhbatdosh – yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni boladigan suhbatdoshdir" [1;101b.] deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan.

Agar muloqot hamma uchun tabiiy bolsa, unda har bir kishi erkin aloqa qilishi lozim. Ba'zan muloqotdagi muvaffaqiyatsizliklar yoshlarni benuqsonroq ,himoyalanganroq bo'lishi uchun o'zidagi eng yaxshi xislatni yashirishga ,buzishga majbur etadi.Odatda,bu ba'zi yoshlarda odamlar bilan muloqot qilishdan qo'rqish yoki boshqacha aytganda ijtimoiy fobiyani tashkil qiladi.Yoshlik inson hayotidagi eng qiyin davr sanaladi.Agar jamiyatda birinchi ongli ravishda kirish salbiy bo'lsa,unda kelajakda inson odamlar bilan muloqot qilishda muammolarga duch keladi.Muloqot qobiliyatlari yoshga qarab ega bo'ladi va bu yerda eng muhimi ,bu san'atni egallashdir.

Talaba o'rganish doirasida “insonga muloqot nima uchun kerak”degan savolga javob berish foydali degan savolga javob berish foydali bo'lishi mumkin bo'lgan asosiy fan ijtimoiy fandır.Shuning uchun ham ijtimoiy fanlar yoshlarni muloqotga o'rgatishda yetakchilik qiladi.O'z turi bilan muloqot qilish orqali inson o'zining hissiy holatini tartibga solish imkoniyatiga ega bo'ladi.Psixologlarning ta'kidlashicha ,muloqot ulardan biridir,muhim omillar bu psixikaga ta'sir qiladi.Insoniy his-tuyg'ularning sevgidan-nafratgacha butun doirasi ham bir-biri bilan muloqot qilish jarayonida paydo bo'ladi.

Yoshlarni bugungi kunda” siyosiy faol “,yoki “siyosiy faol bo'lmagan”guruhga ajratish mumkin.Bularga:1.Siyosiy o'zgarishlarni aniq idrok etgan; 2.Qonunlar ularni hayotga tadbiiq etishda befarq bo'lmagan; 3.Demokratik islohotlarga o'z hissasini qo'shayotgan; 4. Muayyan siyosiy partiya yoki ijtimoiy harakatlar bilan o'z faoliyatini bog'lagan yoshlarni siyosiy faol qatlam deyish mumkin.

O'zbekiston Respublikasiada 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar yoshlar hisoblanadi.Yoshlarni ijtimoiy –iqtisodiy va siyosiy-ma'naviy sohadagi faolligini oshirishning asosiy omillarini ilmiy-ijodiy yosh ziyolilarimiz ongiga amalga singdira olsakkina, Uchinchi Rennesans poydevorining eng mustahkam ma'naviy-ma'rifiy ustunini yaratgan bo'lamiz.

Adabiyotlar

1. Вгајнокoв ,В.Х.Мuloqot madaniyati va semioz/В.Х.Вгајнокoв// Madaniyatning etno-belgi funksiyalari.-1991-S.90-104
2. М.Мақсудова.Мuloqot psixologiyasi.Toskent.Turon-Iqbol/2006-S.92-101
3. В.Н.Мясишев. Основные проблемы и современное состояние психологии отношений. Москва. 2011. С.125
4. Muomala madaniyati.В.Хусанов,В.Г'ulomov.Toshkent.2009.
5. Nutq san'ati va notiqlik san'ati.U.Хусанов.Т--.,”Академија”nashriyoti,2007.
6. Кьеркегор, Сьрен. Или — или: Фрагмент из жизни: в 2 ч. / Пер. с дат., вступ, ст., коммент., примеч. Н. Исаевой и С. Исаева. — СПб.: Издательство Русской христианской гуманитарной академии; Амфора, 2011. — 843 с.
7. Стрельцова В. П. Психологические воззрения В. Н. Мясищева. Тверь, 2009,18ст.